



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz,
devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: INOYATOV MIRABBOS MIRKOMILOVICH

Sana: 06-07-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 99252

Obyekt nomi «Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, "Bo'ston" maxallasi, "Talabalar" ko'chasi, 9-uy hududida "Guliston davlat universiteti" DM tomonidan qurilishi tugallanmagan suv xavzasini, "Universitet Axborot Resurs Markazi" binosi sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilish" ishchi loyihasi»

Buyurtmachi - Guliston davlat universiteti.

Bosh loyihachi - "KOVCHEC-ART" MChJ.

Litsenziya 2022-yil 26-dekabrda AL-000236-sonli.

Moliyalashtirish manbai - Byudjetdan tashqari mablag'lar.

Bosh pudratchi - Tender savdo natijalari orqali aniqlanadi.

Qurilish turi Rekonstruksiya.

Murojaat raqami: № 88685

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi 563-sonli qarori.

1.2. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2022-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.3. Guliston shahar qurilish bosh boshqarmasining 2022-yil 8-avgustdagi 1724-1724401-47856-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.4. 2022-yilda "O'ZGASHKLITI" DUKning Sirdaryo filiali tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.5. 2022-yilda "Zilzilabardosh qurilish" Ilmiy-loyiha markazi tomonidan o'tkazilgan mavjud bino va inshootlarni texnik ko'rikdan o'tkazish va instrumental o'rganish bo'yicha xulosasi.

1.6. "Hududgaz Sirdaryo" GTF tabiiy gaz bilan gazlashtirish loyihasini ishlab chiqish va gazlashtirishga 2022-yil 21-oktyabrdagi 002862-sonli texnik sharti.

1.7. "Sirdaryo Xududiy Elektr Tarmoqlari" AJ elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2022-yil 24-oktyabrdagi 074-sonli texnik shartlar.

1.8. "Sirdaryo suv ta'minoti" MChJ Guliston shahar bo'limining 2022-yil 20-oktyabrdagi 203-sonli texnik shartlar.

1.9. "O'zbektelekom" AK "Sirdaryo filiali" Guliston shahar telekommunikatsiya bog'lamasining 2022-yil 20-dekabrda 30-01-03/474-sonli texnik sharti.

1.10. Loyihachi va buyurtmachi o'rtasida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2022-yil 8-oktyabrda tuzilgan 19-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra "ishchi loyiha" ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Tashqi havo haroratining qishki xisobi - -19°S .

Normativ shamol bosimi - $W_0 = 0,38 \text{ kPa}$.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50 \text{ kPa}$.

Qurilish maydonining zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi - 0,6 m.

3.2. Arxitekturaviy yechimlar.

Bino 1 qavatdan iborat 1-20 o'qlari bo'yicha 107,2m., A-E o'qlari bo'yicha esa 30,8m. ni tashkil qiladi. Bino ichidagi kompyuter zalining balandligi 5,1m. dan 7,3m. gacha. Kutubxona va ma'muriy administratsiya xonalarining balandligi esa 3,7m.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Qurilish maydoni - $4546,5\text{m}^2$.

Umumiy maydon - $3522,0\text{m}^2$.

Qurilish xajmi - $33010,0\text{m}^3$.

3.3. Konstruktiv yechimlari.

Loyihalashtirilgan "Qurilishi tugallanmagan suv havzasi binosini universitet axborot resurs markazi (ARM) binosiga qayta rekonstruksiya qilish" quyidagi asosiy konstruktiv yechimlarga ega:

Bino 1 qavatdan iborat 1-20 o'qlari bo'yicha 107,2m, A-E o'qlari bo'yicha esa 30,8m. ni tashkil qiladi. Bino ichidagi kompyuter zalining balandligi 5,1m. dan 7,3m. gacha. Kutubxona va ma'muriy administratsiya xonalarining balandligi esa 3,7m.

Binoda joylashgan xonalar:

Bufet, garderoob xonasi, kompyuter xonasi, server xonasi, ommaviy axborot vositalari xonasi, direktor xonasi, xodimlar xonasi, ilmiy-uslubiy bo'limi, kutubxona fondi, texnik xonalar, kichik xizmat xodimlari xonasi.

Ichki pardoiz ishlari:

Ichki pardoiz ishlari sanitariya norm va qoidalariga binoan amalga oshirilgan. Vodoemulsiya va akril bo'yoqlari va keramik plitkalardan foydalanilgan. Pollarning pardoiz ishlari SanPiN normalariga muvofiq bajarilgan: relin va keramik pollardan tashkil qiladi. Oyna va eshiklar metal-plastikdan (Akfaplast).

Tashqi pardoizlash ishlari:

Sokol qism to'q kuli rangli keramogranit bilan qoplangan. Binoga kirish qismlari to'q kuli rangli sayqallangan keramogranit bilan qoplangan. Devorlar och kuli rang sendvich panellardan. Binoning

parapet qismi oq rangli "Alyukobond" tipidagi alyumin panellar bilan qoplangan.

3.4. Yong'in xavfsizligi.

Yong'iniga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong'in xavf turi – F2.1.

Konstruktiv yong'in xavf turi – S0.

3.5. Qurilish qiymatini hisoblash.

Qurilish-montaj ishlarining qiymatini hisoblash shartnomaviy joriy narxlarda ShNQ 4.01.16-09 "Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash bo'yicha qoidalar"ga muvofiq tuzilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Ichki muhandislik tizimlari.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi, yong'inni avtomatik o'chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi).

4.2. Energiya samaradorlik.

Bino tashqi devorlarining issiqlik o'tkazuvchanligi KMK2.01.04-2018 2b-jadvalga asosan issiqlik himoyasining 2-chi darajasi qabul qilingan, yangi, qalinligi 120mm bo'lgan bazalt-mineral qoplama bilan qoplangan.

Loyihaga ko'ra binoning tom qismiga 135 dona quvvati 450 Vt bo'lgan quyosh panellari o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Sirdaryo viloyati qurilish bosh boshqarmasi xuzuridagi kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2023-yil 13-apreldagi 69365-sonli xulosa);
- Sirdaryo viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi tomonidan 2023-yil 12-mayda berilgan 18/297-sonli Davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga 2022-yil buyurtmachining loyixaviy yechimlariga izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- asosiy qurilish materiallari, quruvchi – ishchilarning ish haqlari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlariga aniqlik qiritildi;

- loyixaning AR, KJ, OV, VK, ES, PS, PB, GP, ko'rib chiqildi va kamchiliklar bartaraf etildi.

6.3. Ekspert tekshiruvi natijalarini hisobga olgan holda qurilish qiymati QQS bilan va buyurtmachining boshqa harajatlarisiz 24 073 956,028 ming so'm qilib belgilandi, shu jumladan:

uskunalar - 3 543 362,276 ming so'm;
qurilish-montaj ishlari - 17 951 241,320 ming so'm;
QQS - 2 579 352,432 ming so'm.

Qurilish qiymatining pasayishi qurilish materiallari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlari va boshqalarga aniqlik kiritish hisobidan kelib chiqdi.

Import qilingan uskunalar va materiallar narxlari ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmadi.

6.4. Buyurtmachiga tavsiya etiladi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish.

Loyiha hujjatlari buyurtmachi, "Sirdaryo XET" va "O'zenergoinspeksiya" AJ bilan kelishilsin.

"Yong'in signalizatsiyasi va yong'in to'g'risida ogohlantirish" bo'limi favqulodda vaziyatlar vazirligi vakillari bilan kelishilsin.

6.5. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar yuqoridagi ushbu talablar bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da "Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi".

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, "Bo'ston" maxallasi, "Talabalar" ko'chasi, 9-uy hududida "Guliston davlat universiteti" DM tomonidan qurilishi tugallanmagan suv xavzasini, "Universitet Axborot Resurs Markazi" binosi sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilish", smeta xujjatlari ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qorori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Ekspert mutaxassislar: Abduraxmonov M., Olxovskaya V., Musaev R., Shakurov R., Kuserbaev M., Komilov Sh.

Bosh mutaxassis: XUDAYBERGANOV XAYRULLO OLLABERGANOVICH

Ishtirokchi ekspertlar: